

INKLUZIV TA'LIMDA PSIXOLINGVISTIKA

Abdug'aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, talaba.

E.mail: abduganiyevamushtariy23@gmail.com

Annotatsiya: Imkoniyati cheklangan bolalar, yani maxsus ta'limga muhtoj bolalar turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim muhiti yaratishda psixolingvistik uslublardan foydalangan holda ularni qo'llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta'limga jalb etish juda muhimdir. Ushbu maqolada turli xil imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularning xususiyatlari hamda ularni inklyuziv ta'limga jalb etish yondashuvlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: inkluziv, uzluksiz ta'lim, nogiron bolalar, individual, imkoniyat, muloqot, shart-sharoit

Yurtimizda isloh qilinayotgan ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish va mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtaiy nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" kabi vazifalar belgilangan. Bunda, o'quv jarayonlarida psixolingvistik o'qitish texnologiyasidan foydalanish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda ta'lim berishning asosiy va yetakchi maqsadi - bu butun o'quv jarayonini belgilaydigan kommunikativ maqsaddir. Hozirda nogiron bolalarni normal rivojlanayotgan o'quvchilar bilan bir qatorda o'qitish tajribasi faol shakllantirilmoqda. Inkluziv ta'lim amaliyoti har bir o'quvchining individualligini qabul qilish g'oyasiga asoslanadi, shuning uchun jarayon nogiron bolalarning ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil qilinishi kerak.

"Inklyuziv ta'lim — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir".[1]

Inkluziv ta'limda ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda psixolingvistik tamoillarni zamonaviy pedagogik tehnologiyalar bilan birgalikda qo'llab, o'quvchi bilan muloqot o'rnatishni samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda turli xil nogironligi bo'lgan ko'plab bolalar uchun ta'lim olishning yagona yo'li bu - o'quvchini dars jarayoni uchun zarur jihozlar va shart-sharoitlar bilan ta'minlashning o'zi yetarli emas. Buning uchun o'quvchining barcha yosh, psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Nogiron bolalar, asosan, ko'proq muloqotda bo'lishadi, shu sababli iloji

boricha, darsga psixolingvistik yo'nalish berish kerak. Bu esa o'quvchiga tengdoshlari bilan muloqot qilishni osonlashtiradi hamda o'z fikrlarini ham ifodalay oladi.

Inklyuziv termini inglizcha - uyg'unlashish, hamkorlikdagi ta'lim ma'nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.[3.568]

Nogiron bolalar har xil bo'lganligi sababli, darslarda ularning kompensatsion imkoniyatlarini hisobga olgan holda materiallarni taqdim etish kerak. Masalan, eshitish qobiliyati buzilgan, diqqat va nutqida buzilishlar bo'lgan bolalar vizual materialni yaxshiroq o'rganishadi ya'ni bu rasmlar, taqdimotlar, elektron kitoblar va topshiriqlar; katta bosqichda - kichik sxemalar, ma'lumot jadvallari, komikslar ko'rinishidagi moslashtirilgan matnlar [2.212]

Darslarda o'quvchilarni psixolingvistik o'qitishning maqsadi va vazifalari quidagilardan iborat:

- ularda nutqiy faollik rivojlanish;
- psixofizik to'siqlarni bartaraf etish;
- alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'qitish jarayonining yangi texnologiyalar asosida amalga oshirish;
- shaxsni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o'zlashtirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanishi;

Inklyuziv ta'limda psixolingvistik ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.

- o'qitishning moslashuvchan shakllariga, psixolingvistik interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lish;
- bilish faoliyati psixolingvistik mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati;
- jamoda ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta'limi uchun psixologik-pedagogik yordamni yaratish uchun psixolingvistik mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish;

Yagona ta'lim psixolingvistik konseptual tizimi orqali imkoniyati cheklangan aholini o'qitish va ularni jamiyatga integratsiya qilish eng muhim maqsad hisoblanadi. Ana shu maqsad doirasida dunyo bo'ylab inklyuziv ta'lim tizimi yo'lga qo'yilmoqda hamda yurtimizda ham takomillashib bormoqda. Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Shu jihatdan psixolingvistik yordamni tashkil etish muhim ro'l o'ynaydi.

Psixolingvistik yordamni tashkillashtirish va amalga oshirishda asosiy urg'uni kadr xodimlarning u yoki bu sohaga ixtisosligi bo'yicha tashkil etish juda muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi.

Maxsus ta'lim o'qitishning psixolingvistik va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'nalirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi.

Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalarga hamisha o'z oilasi va yaqinlari yonida bo'lishga imkon beradi; Inklyuziv ta'lim natijasida ta'lim sifatini yaxshilashga erishish mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim maktablarida ta'lim olishlari natijasida o'qitishning yangi usullari joriy etila boshlaydi; Inklyuziv ta'lim kamsitishlarning oldini olishga yordam beradi. Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning umumta'lim maktablarida birga tahsil olishlari nisbatan bo'lgan noto'g'ri qarash o'zgaradi. O'zaro hurmat va tenglik munosabatlari shakllanadi.[3.132]

Psixolingvistik yordamni tashkillashtirish va amalga oshirishda asosiy urg'uni kadr xodimlarning u yoki bu sohaga ixtisosligi bo'yicha tashkil etish juda muhim hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi.

Hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir.

O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yishni tashkillashtirishda pedagog va psixolog xodimlarning amaliy va nazariy malakalarini rivojlantirish.

Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi.

Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi.

Va yana shuningdek, dunyoning ba'zi bir mamlakatlarida malakali va tor ixtisoslikka ega mutaxassis psixologdan ish-faoliyati bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan, natija samaradorligini ko'rsata oladigan professionalizm va nostandart yechim izlashda deduktiv qobiliyat yuqori ko'rsatkichi avvalo eng muhim hislati hisoblanadi. Xususan bunga prinsipal qaraydigan bo'lsak, har bir pedagog-psixolog xodim Inklyuziv ta'limning kontseptual apparatini aniqlashtirish zarur, sababi ular falsafaga, kontseptual asoslarga asoslanadi.

Psixolingvistika fani bolalar va kattalarni ta'lim va lingvistika qonuniyatlari haqidagi fan sifatida ta'riflanadi.

Fanning asosiy vazifasi - tarbiya, lingvistik o'qitish, ta'lim va ta'lim tizimlaridagi sohasidagi qonuniyatlarni aniqlashdir.

Inklyuziv maktab – inklyuziv ta'lim tashkil etilgan maktablar bolalarning bilim olishi hamda shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. O'quvchilari turlicha, sog'lom va yengil darajada nogiron bo'lgan, ularning har birlari uchun o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoit yaratilgan maktabdir.[4.298] Inkluziv maktablarda darslarda psixolingvistik yondashuv asosida olib borilsa samaradorligi yana ham unumli bo'ladi.

Ta'lim sohasini, xususan, inklyuziv ta'limga oid qonunchilikni takomillashtirish, bu borada bosqichma-bosqich islohotlarning olib borilishi mamlakatimizda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalarga sog'lom bolalar bilan bir xil sharoitda bilim olishlarida teng huquq va imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limda-darslarni-tashkil-etishning-zamonaviy-tendensiyalari/viewer>.
3. <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/271/274>
4. https://www.researchgate.net/publication/378203213_Umumta'lim_maktablarida_inklyuziv_ta'lim_jarayonining_ijtimoiy-psixologik_mexanizmlarini_takomillashtirish
5. <http://ocutus.ucr.edu>
6. <http://www.ziyo-net.uz>
7. <http://www.kutubxona.uz>